



## O'ZBEKISTONDA AKSIZ SOLIG'INI JORIY ETILISHNING IQTISODIY MOHIYATI HAMDA HUQUQIY ASOSLARI

**Babajanov Davronbek Jumamuratovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-1577-0580

[davrbobo@mail.ru](mailto:davrbobo@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada aksiz to'lanadigan soliqlar aksiz to'lanadigan mahsulotlar narxiga kiritiladi va shu tariqa yakuniy iste'molchilarga o'tkaziladi. Shu bilan birga, aksiz solig'i miqdori soliqqa tortiladigan tovarlar narxlari darajasini sezilarli darajada belgilaydi, shuningdek, iste'mol talabiga ta'sir qiladi. Aksiz solig'i davlat daromadlarini shakllantirishda va muayyan tovar va xizmatlar iste'molini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada aksiz solig'i ma'muriyatchiligi bo'yicha mavjud adabiyotlar ko'rib chiqiladi, ilg'or xalqaro tajribalardan xulosalar olinadi. Unda nazorat mexanizmlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan, asosiy e'tibor soliq organlarida siyosat islohotlari, texnologik integratsiya va salohiyatni oshirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'muriyat, qiyinchiliklar, samarasizlik, muvofiqlik, daromadlarni optimallashtirish, tartibga solish natijalari, soliqlar va soliqqa tortish, egri soliqlar, aksiz solig'i, aksizosti mahsulotlar, aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti.

## ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ВВЕДЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Бабажанов Давронбек Джумамуратович**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** Согласно статье, акцизы включаются в цену подакцизных товаров и таким образом передаются конечным потребителям. При этом сумма акциза существенно определяет уровень цен на облагаемые налогом товары, а также влияет на потребительский спрос. Акцизный налог играет важную роль в формировании доходов государства и регулировании потребления отдельных товаров и услуг. В данной статье рассмотрена существующая литература по администрированию акцизного налога, сделаны выводы из передового международного опыта. Он определяет основные направления совершенствования механизмов контроля, основной упор делается на реформирование политики, технологическую интеграцию и наращивание потенциала налоговых органов.

**Ключевые слова:** администрирование, трудности, неэффективность, соблюдение требований, оптимизация доходов, результаты регулирования, налоги и налогообложение, косвенные налоги, акциз, подакцизные товары, практика налогообложения подакцизных товаров.

## ECONOMIC NATURE AND LEGAL BASIS OF INTRODUCTION OF EXCISE TAX IN UZBEKISTAN

**Babajanov Davronbek Jumamuratovich**  
Tashkent State University of Economics

**Abstract.** According to the article, excise taxes are included in the price of excise goods and thus passed on to final consumers. At the same time, the amount of excise tax significantly determines the price level of taxed goods and also affects consumer demand. Excise tax plays an important role in the formation of state revenues and regulation of the consumption of certain goods and services. This article reviews the existing literature on excise tax administration, concludes advanced international experiences. It defines the main directions of improvement of control mechanisms, the main focus is on policy reforms, technological integration, and capacity building in tax authorities.

**Keywords:** administration, difficulties, inefficiency, compliance, revenue optimization, regulatory results, taxes and taxation, indirect taxes, excise tax, excise goods, the practice of taxation of excise goods.

### **Kirish.**

Mamlakatimizda soliqqa tortish tizimi va soliq ma'murchiligini, shu jumladan, aksiz solig'ini undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari bugungi kunda dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Mustaqillikka erishganimizdan keyin 1992 yildan, respublikamizda aksiz solig'i ilk bora joriy qilinganda beri, doimiy ravishda uni undirishning maqsadliligi, miqdori, tovarlarning importida, shu jumladan, MDH davlatlaridan, hamda soliqni hisoblash va undirish tartibi bo'yicha bahsli munozaralar olib borilmoqda. Shu sababli, respublikamizda aksiz solig'ini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini tadqiq etish hamda shu asnodda bahsli masalalar yechimini ishlab chiqish bilvosita soliqqa tortish va soliq ma'murchiligining nazariy omillari hamda jahon tajribasini tadqiq etish va tahlil etish nuqtai nazaridan olib qaragandagina maqsadga muvofiqdir.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Aksiz solig'i turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida bo'lgan qator davlatlarda bilvosita soliqqa tortishning samarali shakli sifatida e'tirof etiladi.

Giles, Tedds (2002) tomonidan kontrabanda faoliyatini soliq organidan soliq to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida amalga oshiriladigan qonuniy yoki noqonuniy, bozor yoki bozordan tashqari barcha operatsiyalar deb ta'riflagan. Bilvosita soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash ko'pincha kontrabanda, ayniqsa bojxona tariflari bo'yicha jinoyatlar bilan bog'liq. Kontrabanda jinoyatlari embargo, mahsulot sifati va kvotalar kabi pul va pul bo'lmagan daromadlarga ta'sir qiladi.

Hai va See (2011) tomonidan soliq to'lovlariga qasddan yoki qasddan jalb qilingan kompaniyalar, jismoniy shaxslar ishtirokidagi o'lchovlar bo'yicha duch kelgan qiyinchiliklar tufayli mos kelmaslik bo'yicha tadqiqot olib borishdi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda asosiy e'tibor soliq to'lovchi sifatida import qiluvchilar o'rtasida aksiz solig'ini bajarmaslik hodisasi va omillariga qaratilgan.

Kashiraning (2017) fikricha, aksiz solig'i tizimi murakkab hisoblanadi. Aksiz solig'i va alkogolli mahsulotlarning muomalasini nazorat qilish muammosi mavjud, chunki ularni sotish hajmi noqonuniy ishlab chiqarishni rivojlantirish ko'lamiga to'g'ri keladi va katta miqdordagi mablag'lar davlat byudjetidan tashqarida muomalada bo'ladi. Muammoning yechimi alkogolli mahsulotlar ishlab chiqarishda nazoratni kuchaytirish va aksiz tizimida yetarli soliq solinadigan bazani yaratish uchun shart-sharoit yaratish bo'lishi mumkin.

Delipalla (2009) tomonidan “aksiz solig’i bilvosita soliqlarning tarkibiy qismlaridan biridir. 1976-yildagi Aksizlar to’g’risidagi qonunning 6-bo’limida ko’rsatilganidek, Malayziyaga va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga import qilinadigan aksiz solig’i. Bu boj davlat iste’moli yoki ijtimoiy muhandislik tendensiyasini o’zgartirish mexanizmi sifatida ishlatiladi. Aksiz solig’i to’g’risidagi aktda majburiy bo’lgan tovarlarga spirtli ichimliklar, tamaki, sigaretalar, sigaretalar, to’rt g’ildirakli haydovchilar, ko’p maqsadli transport vositalari va o’yin kartalari kiradi”.

Bundan tashqari, fransuz iqtisodchisi F.Demezson ta’kidlab o’tgan edi: “Aksizning birgina o’zi boshqa barcha soliq tushumlari va undan ham ko’proqni berishga qodirdir” (Джамалов, Уразметов, 2021).

Borovko (2012) fikricha, “hozirgi zamon soliq siyosatining istiqbolli yo’nalishi va konseptual aksiz solig’iga tortish amaliyotining ijtimoiy yo’naltirilgan modelini shakllantirish va uning samarali rivojlanishini ta’minlashdir”.

Tegetaeva (2016) fikricha, “aksiz solig’i egri soliq tarkibiga kirsa-da, hozirda uning asosiy ahamiyati aholi ijtimoiy iste’molining holati va istiqbolini baholash mezoni ekanligidadir”.

Troyanskaya va Nizamievalar (2013) ta’kidlashicha, “bilvosita soliqqa tortishning samarali shakli sifatida aksiz solig’idan iste’molni tartibga soluvchi va ishlab chiqarishni rag’batlantiruvchi vosita sifatida foydalanish imkoniyatlarini yaratish, ularning barqarorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etayotir”.

Biroq shuni alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyoti hamda aksiz solig’i ma’muriyatchiligi mavzusi juda kam o’rganilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, aksizosti tovarlarni soliqqa tortish amaliyotini samarali boshqarishda kreativ yondashuvlarning amaliy ahamiyatini yoritish bo’yicha ilmiy xulosalar berildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Iqtisodiy taraqqiyotning har bir bosqichida o’ziga xos soliq tizimining vujudga kelishi avvalo uning tarkibiga kiruvchi soliqlarning harakati bilan bog’liq bo’ladi. Soliq tizimida eng ichki o’zgaruvchan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ko’plab omillari bilan to’qnashuvchi soliq bu — aksiz solig’idir. Shu bois, aksiz solig’ining mohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga bog’liq holda o’rganish eng dolzarb muammolardan bo’lib kelmoqda. Aksiz solig’i egri soliq bo’lganligi sababli uning iqtisodiy mohiyati davlat bilan yuridik shaxslar o’rtasida vujudga keluvchi obyektiv majburiy to’lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Shu bois, aksiz solig’i o’ziga xos fiskal iqtisodiy kategoriya sifatida qaralishi lozimdir.

Aksiz solig’i rivojlangan xorijiy davlatlarda ham davlatning umum soliq siyosatida muhim o’rin egallaydi. Aksiz solig’i korxonalar mahsulotlari va xizmatlari bahosi ustiga yoki ta’rifiga ustama shaklda to’g’ridan to’g’ri kiritiluvchi egri soliq turi hisoblanadi. Aksiz solig’ining iqtisodiy mohiyati byudjet tushumini ta’minlash orqali xalq xo’jaligi manfaatlarini qondirishga, ko’proq mablag’larni jalb ettirishi orqali namoyon bo’lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya’ni asosiy iste’molchilarning to’lov qobiliyatlarini oshishida o’z ifodasini topadi. Bu esa aksiz solig’i obyektlari (aksiz osti tovarlari)ni qisqartirilishida, soliq stavkalari pasayishida, aholi to’lov qobiliyatini o’sishida namoyon bo’ladi.

Aksiz solig’ining funksiyalaridan biri, jahon sog’liqni saqlash tashkiloti tomonidan fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning sog’lig’iga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi mahsulotlar tarkibiga kiritilgan ayrim mahsulotlarni cheklashdir.

**Aksiz solig'i** - bilvosita soliqqa tortishning eng qadimiy shakllaridan bir turi bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'idan farqli ma'lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga qo'shiladi. "**Aksiz**" so'zi fransuz tilidan kelib chiqqan bo'lib, "chopib tashlash, kesilgan" ma'nosini bildiradi. Bu soliq XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Yevropa davlatlarida ma'muriy davlat apparatlari shakllanayotganda, bevosita va bilvosita soliqlar guruhi tashkil topa boshlagan. Bunda bilvosita soliqlardan aksizlar asosiy o'rin tutgan va u shahar darvozasidan chiqarilgan va kiritilgan mollardan bevosita 5% dan 25 % gacha undirilgan. O'zbekistonda esa bu soliq yangi tarkib topgan soliqlardan biri hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki aksiz solig'i-ijtimoiy zararli tovarlarni iste'mol qilishni ushlab turishga xizmat qiladi degan fikrlar xam mavjud. O'zbekistonda aksiz solig'iga katta rentabellikka ega bo'lgan tovarlar tortiladi.

Aksiz solig'i o'z mohiyatiga ko'ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan bilvosita soliqdir. Uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati faqat taqsimot darajasiga qarab ifodalanadi va takomillashtiriladi. Aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan undiriladigan soliqlar to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan keyinchalik kiritilgan va respublika iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq o'zgarish va qo'shimchalarni hisobga olgan holda ilk marotaba 1992-yilda joriy etilgan edi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan aksiz solig'i bilvosita soliq ko'rinishida byudjetga undiriladigan, narxda va qo'shilgan qiymat solig'i bazasida hisobga olinadigan sof daromadning bir qismidir. Aksiz solig'i qo'shilgan qiymat solig'i bilan ma'lum bir o'xshashliklarga ega, lekin o'zining alohidalik, aniq tovarlar bilan bog'liqlik darajasi bilan ajralib turadi.

Bilvosita soliqlar ko'p yillik tarixga ega. Temuriylar saltanati davrida g'aznani to'g'ri soliqlar, jumladan yer solig'i (xiroj), jon solig'i (juzya), salt hayvonlar yetkazib berish majburiyati (uloq) va ba'zi bir favqulodda soliqlar (ovorizot) kabi asosiy soliqlar hisoblanar edi. Temuriylar davrida bevosita soliqlar sifatida "tamg'a" yig'imi keng tarqalgan, bu yig'im asosan hunarmand va savdogarlardan olinar edi. Vaqt o'tgach aksiz solig'iga tortiladigan bu tovarlar doirasi kengaydi. O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning boshlang'ich bosqichlarida (1992-1994-yillar) soliq tizimi ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarga ega bo'lgan byudjetni shakllantirish masalalarini hal qilish uchun mo'ljallangan edi. 1993-yilda paxta uchun aksiz solig'i kiritildi. 1994-yilning oktyabrida esa — chetdan keltiriladigan tamaki mahsulotlariga, 1995-yilning yanvaridan chetdan keltiriladigan alkogol mahsulotlarga aksiz solig'i qo'llanila boshladi. Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichida (1995-1997-yillar) O'zbekistonning soliq tizimi ma'lum darajada takomillashgan edi. Bir qator soliqlarning man qilingandan keyin aksizosti tovarlarning tarkibi kengaytirildi. Uning tarkibiga chetdan keltiriladigan alkogol va tamaki mahsulotlaridan tashqari, benzin, neft, tabiiy gaz kabilar kiritilganligi natijasida aksiz solig'ining davlat byudjeti daromadlari salmog'i 1995-yilda 27-foizni tashkil etdi va 1994 yilga nisbatan 2 foizga o'sish kuzatildi. 1996-yil 1-oktabrdan boshlab, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga chetdan keltiriladigan tamaki mahsulotlarini va spirtli ichimliklarni (pivodan tashqari) majburiy ravishda aksiz markalari bilan markalashning joriy etilishi hamda ularni aksiz markalarisiz sotishning ta'qiqlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 14-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi hududida tamaki mahsulotlariga va spirtli ichimliklarga aksiz markalarini joriy etish to'g'risida"gi 285-sonli qarori qabul qilingan.

Aksiz markalarini qalbakilashtirganlik uchun, shuningdek, qalbaki aksiz markalarini sotganlik uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonuniga muvofiq jinoiy javobgarlik choralari qo'llaniladi. Alkogol va tamaki mahsulotlarini noqonuniy olib kelinishi va ishlab chiqarishning oldini olish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, respublika hududida markalanmagan yoki qalbaki aksiz markalari bilan markalangan, kontrabanda yo'li bilan olib kelingan sifatsiz mahsulotlarni sotish hollarini uchratish mumkin. Aksiz markalaridagi himoyaning amaldagi darajasi ularni qalbakilashtirish va nusxa olish hollariga



to'liq barham berish imkonini bermadi, natijada bozorda qalbaki markali tovarlar sotuvda uchramoqda. 1999-yil 7-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarga aksiz markalarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi 589-sonli yo'riqnomaga asosan O'zbekiston Respublikasida tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklarni ishlab chiqarish, import qilish, saqlash, tashish va sotish ustidan davlat nazoratini o'rnatish, shuningdek, aksiz solig'ini to'liq yig'ib olish, mazkur tovarlarning yashirin tarzda ishlab chiqarilishining yoxud O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinishining oldini olish maqsadida Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining hududiy organlari o'z ishlarida mazkur yo'riqnomaga amal qilishlari va uning bajarilishini ta'minlashlari shart. Aksiz solig'ini to'lovchilari bo'lib, mulk shaklidan va soliqqa tortishning qanday tartibi o'rnatilganligidan qat'iy nazar aksizosti tovarlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Bundan tashqari, oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarganda oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi aksiz solig'ini to'lovchi bo'lib hisoblanadi. Soliq kodeksining 283-moddasiga asosan aksiz solig'ini to'lovchilari quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;

tabiiy gazni iste'molchilarga realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar;

benzin, dizel yoqilg'isini yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishni, shu jumladan avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali, shuningdek gazni avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari orqali realizatsiya qilishni amalga oshiruvchilar. Ushbu bo'limni qo'llash maqsadida yakuniy iste'molchilar deganda o'z ehtiyojlari uchun benzin, dizel yoqilg'isi hamda gaz oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar tushuniladi;

oddiy shirkat ishtirokchisi bo'lgan, oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshiriladigan aksiz to'lanadigan tovarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bo'yicha oddiy shirkat ishlarini yuritish vazifasi zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxs;

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi orqali aksiz to'lanadigan tovarlarni olib o'tuvchilar. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq mazkur shaxslar soliq to'lovchilar deb e'tirof etiladi;

telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini (aksiz to'lanadigan xizmatlarni) ko'rsatadigan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiradigan, aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yoki shunday tovarlarni olib kirishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari.

Aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi, aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan hamda realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Chetdan olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan foizlardagi (advalor) soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati asosida aniqlanadi. Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi import qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning natura holiday hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Olib kirilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan qat'iy belgilangan va advalor soliq stavkalaridan iborat bo'lgan aralash soliq stavkalari belgilangan bo'lsa, soliq bazasi bojxona qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan, aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmidan va (yoki) aksiz to'lanadigan tovarlarning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilish chog'ida realizatsiya qilingan va (yoki) shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalanilgan benzinning, dizel yoqilg'isi va gazning naturada ifodalangan

hajmi soliq bazasi hisoblanadi. Aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Aksiz solig'i stavkalari tovarning yoki xizmatning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor), naturada ifodalangan o'lchov birligiga nisbatan mutlaq summada (qat'iy), shuningdek advalor va qat'iy stavkalardan tashkil topgan aralash stavkada belgilanadi. Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi. Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan ishlab chiqarilayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlarning aksiz solig'i hamda qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir. Ish haqi hisobiga, hisoblab chiqarilgan dividendlar hisobiga, bepul yoki boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun beriladigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha, shuningdek tovarlar tannarxidan past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda soliq to'lovchi tovarlarni topshirish paytida uning haqiqiy tannarxidan kam bo'lmagan darajada belgilaydigan narx asosida hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarishga doir ishlar qiymatini hamda qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar qiymatini o'z ichiga oladi. Aksiz solig'ining stavkalari foizlarda (advalor) belgilangan import qilinayotgan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan bojxona qiymati asosida belgilanadi. Soliq stavkalari har kalendar yil uchun Prezident qarori bilan belgilanar edi. 2020-yildan boshlab davlat byudjeti mamlakatimizda ilk bor qonun sifatida tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018-yil 22-avgustdagi PQ-3917-sonli qarorida 2020-yildan boshlab davlat byudjeti qonun sifatida tasdiqlanishi belgilab qo'yilgan. Misol uchun, barcha rivojlangan davlatlarda davlat byudjeti qonun sifatida tasdiqlanishi o'rganildi. O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risidagi Qonunini ishlab chiqish jarayonida xalqaro moliya institutlari, shu jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlari bilan birga ushbu qonun loyihasi ishlab chiqilgan va to'liq xalqaro standartlar talablariga javob berishi Davlat byudjetining qonuni sifatida tasdiqlanishi, birinchi navbatda, davlat byudjeti ijrosida parlament vakolatlarini, ya'ni vazirlik va idoralarning hisobdorligini, davlat byudjeti ijrosida endilikda ularning parlament oldidagi, ya'ni Oliy Majlis palatalari oldidagi hisobdorliklarini birmuncha oshiradi. Davlat byudjeti mablag'lari bu xalqning mablag'laridir. Parlament vakillari, deputatlarimiz esa bu bevosita xalqning vakillari sifatida ushbu mablag'larni taqsimlash va kelgusida mazkur vazirlik va idoralardan mablag'lar ishlatilishi to'g'risidagi hisobotlarni qabul qilish, ya'ni so'rab olish huquqiga ega bo'ladilar.

Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar tegishli ravishda 2019-yil 1-iyul holatiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisining respublika aholisidagi ulushiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetiga, viloyatlar viloyat byudjetlariga va Toshkent shahri shahar byudjetiga o'tkaziladi. Aksiz solig'ini hisoblash Soliq kodeksning 232-moddasiga muvofiq aniqlanadigan soliq solinadigan bazadan va aksiz solig'ining belgilangan stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ining summasi Soliq kodeksning 232-moddasida belgilangan chegirma summasiga kamaytiriladi:

- aksiz to'lanadigan tovarlar olinayotganda yoki O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinayotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida foydalanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan aksiz solig'i summasi chegirib tashlanadi.

- aksiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) yetkazib beruvchilar mazkur tovar (xom ashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasini hisobvaraq-fakturada ajratib ko'rsatishlari kerak. Olinayotgan

aksiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasi hisobvara-q-fakturada ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, aksiz solig'ining mazkur summasi chegirib tashlanmaydi.

- chegirma soliq davrida realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlar hajmiga to'g'ri keladigan aksiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) hajmidan kelib chiqqan holda aniqlangan aksiz solig'ining hisobvara-q-fakturada yoki bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilgan summasiga nisbatan amalga oshiriladi. Qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan aksiz to'lanadigan tovarlar topshirilayotganda xam qayta ishlashga berilgan aksiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarning mulkdori aksiz solig'i to'laganligini tasdiqlashi sharti bilan qo'llaniladi.

Aksiz solig'ini soliq davri – Yil choragi soliq davridir.

Aksiz solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$O \times A / 100$$

bu erda:

O — soliq solinadigan oborot;

A — aksiz solig'i stavkasi.

Hisob-kitobni taqdim etish tartibi

Aksiz solig'ini yil oyi soliq davridir. Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda, soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi. Aksiz solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi. Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga kadar to'lanadi. Hozirgi kunda aksiz solig'i bo'yicha soliq hisoboti shakllari quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- Aksiz solig'i to'lovchisi to'g'risida ma'lumotlar;
- Advalor stavkalari qo'llaniladigan aksiz solig'i hisob-kitobi;
- Advalor stavkalari qo'llaniladigan aksiz solig'i hisob-kitobiga, chegirilishi lozim bo'lgan aksiz solig'i so'mmasi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- Qat'iy stavkalar qo'llaniladigan aksiz solig'i hisob-kitobi;
- Qat'iy stavkalar qo'llaniladigan aksiz solig'i hisob-kitobiga, chegirilishi lozim bo'lgan aksiz solig'i summasi to'g'risidagi ma'lumotnoma;
- Tabiiy gaz bo'yicha aksiz solig'i hisob-kitobi;
- Tabiiy gaz bo'yicha aksiz solig'i hisob-kitobini qilish paytida chegiriladigan aksiz solig'i summasi to'g'risida ma'lumotnoma.

Ushbu hisobotlarni to'ldirishda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan ishlab chiqaradigan mahsulot turi tanlanib, keyin to'ldirish talab etiladi. Aksiz solig'i boshqa soliklardan farqli ravishda iste'mol jarayonida undiriladigan solik bo'lganligi bois, ma'lum vaqt o'tishi bilan emas operatsiya sodir bo'lgan vaqtning o'zida hisoblanadi va dastlabki hujjatda o'z aksini topadi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra QQS va foyda solig'i soliq to'lovchilari tomonidan Davlat soliq va statistika organlariga quyidagi moliyaviy hisobot shakllari taqdim etiladi:

- buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;
- asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot;
- debitorlik va kreditorlik qarzlari xatida hisobot;
- xususiy kapital to'g'risida hisobot;

Bizga ma'lumki, respublikamizda aksiz solig'i ikkita yo'nalishda, ya'ni respublikamizda yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan aksiz osti tovarlaridan hamda respublikamiz hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan import qilinayotgan tovarlaridan undirilmogda. Mamlakatimizda yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarilayotgan aksiz osti tovarlaridan aksiz solig'ini undirish Davlat soliq qumitasi zimmasiga

yuklatilgan. Mamlakatimiz hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlardan aksiz solig'ining hisobi va uning byudjetga kelib tushishi ustidan nazoratni Davlat bojxona qo'mitasi vakolatiga berilgan. O'zbekiston Respublikasi hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan tovarlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga ko'ra ro'yxatlar va stavkalar bo'yicha aksiz solig'i solinadi. Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i bojxona xizmatlari tomonidan so'mlarda undiriladi va har 5 kunda respublika byudjetiga kiritiladi. Respublika hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni olib kiruvchi, mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxslar, shuningdek jismoniy shaxslar aksiz solig'ini to'lovchilar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solish obyekti bo'lib bojxona yuk deklaratsiyasining 45-ustunida ko'rsatilgan, tovarning bojxona rasmiylashtiruvi paytida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha so'mlarda qayta hisoblangan tovarning bojxona qiymati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga aksiz solig'i olinmaydigan tovarlarning jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilishi bo'yicha belgilangan normalar"ga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarga nisbatan aksiz solig'i tatbiq etilmaydi. Majburiy ravishda markalanadigan, olib kiriladigan aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'ini to'lovchilar aksiz markalarini xarid qilish chog'ida kontrakt (bayonot berilgan) qiymatidan hisoblangan aksiz solig'i summasining 100 foizini to'laydilar, bunda aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i summasidan ortiq miqdorda to'lanadi, mablag'lar belgilangan tartibga ko'ra respublika byudjetiga kiritiladi. Markalangan, aksiz to'lanadigan tovarlar olib kirilganda aksiz solig'i summasi bojxona qiymatidan kelib chiqib qayta hisoblanadi. Davlat bojxona qo'mitasi hududiy bojxona boshqarmalarining qaroriga ko'ra to'lovchiga, tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi sanasidan boshlab 2 oydan oshmaydigan muddatga aksiz solig'ini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash taqdim etilishi mumkin. Ortiqcha kelib tushgan aksiz solig'i summasi o'ttiz kun ichida qaytarilishi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga kiritilishi kerak. Ular to'langan yoki undirilgan paytdan boshlab bir yil davomida to'lovchi ortiqcha to'langan yoki undirilgan aksiz solig'i summaları qaytarilishini talab qilib, murojaat etishi mumkin.

Ortiqcha to'langan aksiz solig'i summalarini qaytarish bojxona organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etish bilan amalga oshiriladi:

to'lovchining yozma arizasi, unda ortiqcha to'lash yoki undirish sabablari ko'rsatiladi, shuningdek pul mablag'lari qaytarilishi kerak bo'lgan to'lovchining bank rekvizitlari beriladi;

aksiz solig'ini hisoblab chiqarish va undirish uchun asos bo'lgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

tovarlar (ishlar, xizmatlar) chegaradan haqiqatda olib o'tilgani to'g'risida chegara bojxonasining belgisi qo'yilgan (zarur hollarda) tovarga ilova qilinuvchi hujjatlar. Ortiqcha to'langan aksiz solig'i summalarini qaytarish umumiy tushumlar hisobiga amalga oshiriladi.

Aksiz solig'i bo'yicha belgilangan 17 181,4 mlrd so'mlik prognoz 15 132,9 mlrd.so'mga (2 048,5 mlrd.so'mga yoki 11,9 foizga kam) ta'minlangan. 2023-yilda aksiz solig'i to'lovchisi 4 596 tani tashkil etgan bo'lib, ularning 5 tasi soliq hisobotlarini taqdim etmagan. Mazkur soliq turi bo'yicha soliq qarzi 31.12.2023-yil holatiga 206,3 mlrd so'mni tashkil qilib, yil boshiga (274,2 mlrd.so'm) nisbatan 67,9 mlrd.so'mga kamaygan, yil davomida 28,5 mlrd.so'm (13,8 foiz) umidsiz soliq qarzlari (shundan 28,4 mlrd.so'mi bankrotlik asosida) hisobdan chiqarilgan. Ortiqcha to'langan soliq summasi 31.12.2023-yil holatiga 468,0 mlrd.so'mni tashkil qilib, yil boshiga (119,7 mlrd.so'm) nisbatan 348,3 mlrd.so'mga oshgan.

Yil davomida 16 656,0 mlrd.so'm soliq hisoblangan va imtiyozlar summasi 1 236,1 mlrd.so'mni (7,4 foizni) tashkil qilgan. 2023-yilda 1,7 mingta holatda aksiz solig'iga 10,3 mlrd.so'mlik to'lovlar amalga oshirilgan va keyingi oylarda qaytarib berilgan.



Bundan tashqari, soliq hisoblanmagan holda, yil davomida 8 ta korxonadan 1,1 mlrd so'm aksiz solig'i to'lovi amalga oshirilgan. Aksiz solig'ining yig'iluvchanlik darajasi 2023-yilda 87,3 foizni tashkil etgan.

Soliq kodeksining 289<sup>1</sup>, 289<sup>2</sup>, 289<sup>3</sup>-moddalariga asosan 8 turdagi tamaki mahsulotlari uchun, 4 turdagi alkogol mahsulotlari uchun, 6 turdagi neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlar uchun soliq stavkalari belgilangan. Biroq, soliq organlarida 16 turdagi aksiz osti tovarlarning ishlab chiqarish va realizatsiya hajmlari, hisoblanishi lozim bo'lgan va haqiqatda hisoblangan soliq summaları yuzasidan tahliliy hisobotlar yuritilmasdan kelinmoqda. Jumladan: — "Asl belgisi" Milliy axborot tizimida markirovka kodlarini shakllantirib berish ishlaridan tashqari, tizimni takomillashtirish, hisobotlarni to'g'ri yuritish va shubhali holatlar to'g'risida soliq idoralariga axborot berish kabi vazifalar bajarilmaganligi;

- axborot tizimi ma'lumotlari asosida tahlil va nazorat ishlari tizimli yo'lga qo'yilmaganligi, soliq organlariga tizimdagi ma'lumotlardan to'laqonli va erkin foydalanishga texnik imkoniyat yaratilmaganligi;

- majburiy raqamli markirovkalash talabi joriy qilingan mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi subyektlarning bor-yo'g'i 42 foizi qamrab olinganligi;

- iste'mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va aylanmasi hajmini onlayn hisobga olish axborot tizimi yaratilmaganligi aniqlanib ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar taqdim etilgan.

Bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlar 2023-yilda 83,3 trln.so'mni tashkil etib, 2022-2022-yilga nisbatan 11,9 trln.so'mga yoki 16,7 foizga oshgan.

Shuningdek, JST talabi bo'yicha import qilinadigan va respublikada ishlab chiqariladigan tovarlar uchun aksiz solig'i stavkalari bir xil bo'lishi lozim. Shuningdek, "UZBAT" AJning Iqtisodiyot va moliya vazirligiga hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga 2024-yil 23-apreldagi murojaatida 2025-yil 1-yanvardan filtrlı sigaretlar uchun aksiz solig'ining qat'iy stavkalarini 1000 donasi uchun 313 000 so'mga oshirish va advalor stavkani bekor qilish taklif etilgan. Jamiyat tomonidan 2023-yilda qiymati 2,4 trln.so'mlik 9 154 mln.dona, 2024-yil 6-oyda 1,4 trln.so'mlik 5085 mln.dona sigaretlar sotilgan. 2023-yilda jami 2,3 trln.so'm (qat'iy stavkada 2 033 mlrd.so'm, advalor stavkada 245 mlrd.so'm), 2024-yil 6 oyda 1,4 trln.so'm (qat'iy stavkada 1 275,0 mlrd.so'm, advalor stavkada 146,0 mlrd so'm) aksiz solig'i hisoblangan. Agar "UZBAT" AJning soliq stavkalari bo'yicha takliflari inobatga olinsa, qat'iy stavka miqdori amaldagi stavkalardan 25 foizga ortib, 2023-yildagi hajmlarda 832 mlrd.so'm (41%), 2024-yil 6 oydagi hajmlarda 108 mlrd.so'm (25%) soliq tushumlari ko'payishi mumkin.

Korxonalar tomonidan tabiiy gaz import qilishda ham, import qilingan gazni realizatsiya qilishda ham aksiz solig'i to'lanmayapti. Vaholanki, import qilingan tabiiy gazni iste'molchilarga realizatsiya qilishda qo'llaniladigan ta'riflarda aksiz solig'i summasi kiritilgan. Mazkur aksiz solig'i summasi iste'molchilar tomonidan to'lanib, byudjetga to'lanmasdan qolmoqda. Buning hisobiga byudjetga 1 327,5 mlrd so'm aksiz solig'i yo'qotildi. Respublika bo'yicha 2023-yil 6 oyda 2 312,7 mln kub m.gaz import qilingan bo'lsa, 2024-yilning mos davrida 5 242,6 mln.kub.m.ni tashkil etib, 2,2 baravarga oshgan. Ichki bozorda gaz hajmi 2024-yil 1 yarim yillikda (16 831,5) 2023-yil mos davriga nisbatan (18 846,9) 2 015,3 mln.kub (10,7%) kamaygan. Amaliyotda soliq organlari tomonidan import qilingan gaz va ichki bozorda ishlab chiqarilgan gaz realizatsiya qilinganligini aniqlashning umuman imkoniyati mavjud emas va buning hisobiga soliq ma'murchiligida muammolar saqlanib qolinmoqda. Shuningdek, Jahon savdo tashkilotining talablariga asosan import qilinadigan va respublikada ishlab chiqariladigan tovarlar uchun aksiz solig'i stavkalari bir xil bo'lishi lozim. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi ko'rib chiqilayotganligi sababli ushbu taklif kiritilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 1-iyundagi 345-son qarori bilan tasdiqlangan "Alkogolsiz ichimliklarning xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglament"ning 38-bandida, Alkogolsiz ichimliklar qadoqning butunligi yoki qadoqni berkitgan moslamaning sezilmas tarzda buzilishi ehtimolini istisno qiladigan tarzda qadoqlanishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

Ya'ni Alkogolsiz ichimliklar faqat qadoqlangan holda sotilishi shartligi, boshqacha holatda sotish ta'qiqlanganligi ko'rsatilgan. Shuning uchun, SKning SK-289-3-moddasida iste'mol qadog'iga qadoqlangan degan so'zlarni chiqarib tashlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Amaldagi qonunchilikda Oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi uchun aksiz solig'i hisoblanadi.

Ushbu mahsulotga xam aksiz solig'i joriy etilishi bilan sifatsiz bo'lgan don distillyati ishlab chiqarish nazoratga olinadi va xufiyona iqtisodiyotga barxam beriladi. Dastlabki hisob-kitobga ko'ra ushbu mahsulotga aksiz solig'i joriy etilishi natijasida budjetga qo'shimcha 39,6 mlrd.so'm soliq tushum ta'minlanadi.

Soliq kodeksining 289-3-moddasiga tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar bo'lgan, gazlangan hamda iste'mol qadog'iga qadoqlangan ichimliklar qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu taklif bilan umumovqatlanish yoki savdo korxonalarida ko'p uchrayotgan "KOKA KOLA" va "PEPSI" dan olingan sirop mahsulotlarini maxsus uskuna orqali suv bilan aralashtirib gazlangan holda bir martalik stakanlarga quyib sotish amaliyotida aksiz solig'i hisoblanishi yuzasidan tushunmovchiliklarga barham beriladi.

### **Adabiyotlar/Литература/Reference:**

Delipalla, S. (2009). *Commodity tax structure and informal activity. Bulletin of Economic Research*, 61(3), 283-294.

Giles, D. E., Tedds, L. M., & Werkneh, G. (2002). *The Canadian underground and measured economies: Granger causality results. Applied Economics*, 34(18), 2347-2352.

Hai, O. T., & See, L. M. (2011a). *Behavioral intention of tax non-compliance among sole-proprietors in Malaysia. International Journal of Business and Social Science*, 2(6), 142-152.

Боровко Л.В. (2012) *Формирование социально-ориентированной модели акцизного налогообложения и эффективность её развития. // Проблемы экономики и юридической практики*, № 6, с. 71-75.

Джамалов Х.Н., Уразметов Ж.М. (2021) *Задачи анализа финансово-хозяйственно-цифровой деятельности в новой системе финансового менеджмента. // Иқтисодиёт ва таълим*, № 3, с. 96-103.

Каширина, М. В. (2017) *Проблемы уплаты акцизов на алкогольную продукцию в России / М. В. Каширина, Б. Б. Ташполатова // Московский экономический журнал*. № 5. — С. 32.

Кодекс (2020) *Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи.*- 640 б.

Тегетаева О.Р. (2016) *К проблемам реформы акцизного налогообложения. // Налоговый менеджмент*. № 6. С. 23-27.

Троянская М.А., Низамиева Ю.О. (2013) *Совершенствование акцизного налогообложения как инструмента налогового регулирования. // Бизнес в законе*, № 8, с. 121.